oZBEKİSTON RESPUBLİKASİ XALQ TA´LİMİ VAZİRLİGİ

AJİNİYOZ NOMİDAGİ NUKUS DAVLAT PEDAGOGİKA İNSTİTUTİ

«Fizika-mehnat» faqolteti

«Mehnat talimi» yunalishi
IV- kors talabasi Turganboeva Sarbinozning

# *BİTİRUV MALAKAVİY İShİ*

Mavzu: Umumtalim maktablarida yagosh buyumlariga naqsh elementlarini chizichni orgatish metodikasi.

«Ximoyaga tavsiya etilsin»
«Mehnat talimi»
kafedrasi mudiri _______N.Orinbetov
«___»____g01h yil

Talaba` __________Turganboeva S.
İlmiy rahbar` __________Amanbaev M.

Nukus-g01h

Mavzu: Umumtalim maktablarida yagosh buyumlariga naqsh elementlarini chizichni orgatish metodikasi.

**REJA**

**I.Kirish**

I.I. ozbek Xalq amaliy bezak san’ati sirlari.

I.II. Yogosh buyumlari uchun asbob uskunlar va  ulardan foydalanish
**II. Ososiy qism**
II.I ozbek xalq naqqsh atamalari va buyumlarni bezashda ishlatilishi
II.II. Naqqoshliqda ishlatiladigan materiallar va ularning turlari
II. III. Talabalariga axta va shpaklevka tayyorlash texnologiyasi.
II.IV. Talabalarga yangi materialni tuchuntirish
(yogosh buyumlariga naqsh elementlarini chizishni orgatish)
**III. Xulosa**
III.I.Foydalangan adabiyotlar.

# Kirish.

Ma`lumki gozallik, nafosat sirlarini organish orqali insonlarga xos oliy fazilat-ezgulikka etaklash borasida boshqa biror soha oʼqituvchisi xalq, Amaliy san’at mutaxassisi bera oladigan vazifani bajara olmaydi. Darhaqiqat, oquvchi va eshlarni estetik va ahloqiy kamolotga etqazish, ularga har tamonlama ma`naviy ozuqa berishda xalq amaliy san’at mutaxassisining imqoniyatlari keng.

Vatanimiz Mustaqillikka erishgandan song xar jabxada ijobiy ozgarishlar, yuksalishlar sari borayotganimiz quvonarli holdir. Milliy qadriyatlarimizni tiklash, ozligimizni anglash, ota-bobolarimiz qoldirgan boy merosni qadriga etish va ulardan oz hayotimizda, faoliyatimizda unumli foydalanish, ularning ruhi xar doim bizga madadkor ekanligini dildan his qilib turish bugungi biz erishgan va erishayotgan yutuqlarimizning garovi ekanligini qayd etib otishimiz joiz bolmasa kerak. Chunki bugungi kunga kelib xukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bir qator xayrli ishlarni ta`kidlab otish kishi ruhiyatida faxrlanish tuygusini uyg’otadi.

"Ta’lim togrisida" gi qonun va "qadrlar tayyorlashning milliy dasturi" kabi farmonlari yoshlarni milliy iftixor, milliy g’urur tuyg’ulari bilan tarbiyalashga qaratilgan desak mubolag’a bolmaydi. Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda nafaqat ta’lim, savdo-sotiq, fan va texnika balki milliy hunarmandchiligimizda ham salmoqli yutuqlarga erishmoqdamiz. Milliy hunarmandchiligimiz xattoki davlat siyosati darajasigacha qutarilib, unga aloxida e`tibor bilan yondashilayotgani bugungi kunda sir emas.

Shuningdek «qadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning «Uzliksiz ta’limini isloh qilish yonalishlari» qismida «ta’lim tizimini tarqibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, Fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodyot va madaniyatining johon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda talim va kasb-hunar talimi dasturlarini tubdan ozlashtirish»q lozimligi qayd qilinadi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun amaliy san’at fanlaridan yozilgan dasturlar, darisliklar va oquv qollanmalarni milliy dasturda kozlangan

maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazardan tahlil qilish baholash va takomilashtirish masalasi kelib chiqadi.

Yogoch buyumlarga naqsh chizish ozbek xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta eki yogoch buyumlarga chizib, kesib, oyib, ishlanadi. Badiiy san’atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bolib, qadimgi sharqda antik dunyo mamlaqatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Evropa va Osiyo mamlaqatlarida yogoch oymakorligining rivojlanib oziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari orta Osiyoda ham yogoch oymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy rozgor buyumlarida va arxitekturasida juda keng qollanilgan. Bu oymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, har xil tusin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan  Arxeolog olimlarimizning izlanishlaridan orta Osiyoda gorel`efli, ya`ni juda bortiq (1 mm dan g0 mm gacha) rel`eflar bilan har xil narsalarni yogochdan oyib ishlanganligi ma`lum boldi. Xalq yaratgan asarlar ozining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yogochdan ishlangan ajoyib yoqoch oymakorligiga har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay asrlar otishi bilan ular namga dosh beraolmay deyarli kopchiligi chirib, yoq bolib ketgan. Bolarni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda.

Yog’och taroshlovchi usta naqqoshlar oz san’atini yog’ochda dovdaraxtlarning aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san’ati otadanbolaga, avloddanavlodga meros bolib otaverdi».

Ota-bobolarimizdan meros bolib qolgan obidalar, asori-atikalarni qayta ta`mirlash, ularga qaytadan jon, joziba va gozallik baxsh etish, qolaversa bizdan ozlashtirilgan, umuman beganoga aylantirib quyishga qilingan xaraqatlar oraligidagi pardalar qutarilib haqiqat yana qayta qaddini rostladi. Yana oz yurtiga Alpomish, Al-Buxoriy, Al-Fargoniy, Amir Temur va yana koplab bizning bobokalonlarimiz qaytishdi. Ularning ruhi poklarini shod qilish, qolaversa keyingi

avlodlarga etqazish maqsadida qurilgan betimsol yodgorliklar, asori-atikalar fikrimizning yorqin misolidir. Birgina Toshkent shaxrida milliy uslubda bunyod etilgan bunday inshootlarni koplab uchratishimiz mumqin.

ozbek xalq amaliy bezak sanati ham san’at, ham hunar. U asirlar mobaynida ota-bobalarimiz tomonidan koz qorochigidek asrab abaylab kelingan xalq amaliy bezak sanati durdanasidir. Bu mening bitiriv malakaviy ishimda Umumtalim maktablarida yagosh buyumlariga naqsh elementlarini chizichni orgatishni maqsad qilib qoydim. Tarixda va Ayni kunlarga qadar saqlab kelinayotgan bu Amaliy san’at turlari kelgusida yanada qadirlanadi, ardoqlanadi buning uchun yoshlarni xalq amaliy sanati uning gozalligi, insonlar hayotidagi turgan urni haqqida keng tuchinchalar berishimiz kerak

Eng asosiy maqsad zamonaviy tasviriy sanat talimi pedagogi, oqituvchisi orqali oquvchi, eshlarimizdagi qobiliyat hamda imqoniyatlami aniqlab, ulami tugri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir.

Tasviriy sanat talimi pedagogikasining oziga xos murakabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini oquvchi va yo’shlarga ulashish mahoratiga ega bola oladigan ustozlami etishtirib chiqarish.

Mamlaqatimiz taraqqiyo’tida mustaqillik ruhi tobora mustahkamlanib, barcha jahon andozasiga mos islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada birinchi prezidentimiz İ.A.Karimovning- «Barchamiz yaxshi anglab etichimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma`naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng organilishi an`analarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, Fan va ta’lim rivoji bilan uzviy boglikdir», -degan sozlari bilan ma`naviyat choqqisiga intilishga chorlamoqda.

Buning uchun ta’lim olayotgan har bir talabani san’atga moyilligini, mavjud iqtidorlik qobiliyatini boyitib uni amaliy, nazariy ilmiy jihatdan shakllantirish maqsad qilingan. Ta’limning samaradorlik mezoni uning xalqaro standartlar talablariga javob berishi bilan belgilanadi.

**ozbek Xalq amaliy bezak san’ati sirlari.**

O'lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvoxlik berishicha, insonning jismiga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayok boshlangan bolib, asrlar osha xozirgacha davom etip kelmoqda

Xalq amaliy-badiiy bezak san'ati-san'atning teatr, qino, musiqa, tasviriy san'at turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb etadi. U oz nomiga kora amalietda, ya`ni turmushda ullanadigan bezak san'ati ma`nosini anglatadi. Amaliy-badiiy bezak turli xil buyumlar, kuchalar, maydonlar, istirohat boglari, ishlab chiqarish korxonolari, uquv-tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bogliqdir. Shuningdek. U kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagini ham oz ichiga oladi. Amaliy-bezak san'ati kishilar turmishida shunchalik keng qollanadiki, usiz turmushni tasavvur etish qiyin.

Amaliy san'atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulgayib borgan sari amaliy san'at ham yuksala bordi. Yashash uchun korash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borish jarayonida qol mexnatidan aqliy mexnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-rozgor buyumlariga bolgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh oymakorligi, suyak oymakorligi, keyinchalik esa yogoch oymakorligi ham seqin astalik bilan oz rivojini topdi.

Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta ozgarishlar sodir boldi. Bu esa fan va san'at rivojida muxim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrlarda paydo boldi. Xalqning turmushi xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida oz ifodasini topib bordi. Xar bir davrda mavjud bolgan ana shunday san'at va san'atkorlar hayot gozalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak hislat va fazilatlarni kamol topdirib bordi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik va yorqin kelajakka intilish yolidagi korashga da`vat etdi.

Arxeologik qazish ishlari natijasida Surxon voxasidagi yumaloq tepa tubidan topilgan yogoch oymakorligi topilmalari mazkor joylarda áèð, áèð yarim ming yil muqaddam san'atning bu turini yaxshigina rivoj topganligini olimlarimiz oz

izlanishlarining maxsuli sifatida isbot etib berishdi. Xali-xanoz bunday noyob topilmalar nafaqat Surxon voxasida, balqi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Fargona vodiysidagi Sux va boshqa qadimiy shaxar, qishloqlaridan V-VI asrlarga tegishli bolgan san’at asarlari topilmoqda.

O Chingizxon bosqinchiligi tufayli XIII asrga kelib madaniy hayot izdan chiqdi. orta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx va Mavr kabi bir qator shaxarlar Chingizxon boshchilik qilgan mugil bosqinchilari tomonidan ostin-ustin qilib tashlandi.

Bu vayronagarchiliklarga XIV asrning iqqinchi yarmida Jaxongir Amir Temur orta Osiyo xalqlarini birlashtirish orqali chek quydi va xalqimizning madaniyati, san’ati, shu jumladan, yogoch oymakorligining rivojiga ozi qurdirgan obidalari, asori-atikalari bilan oz hissasini qoshdi. Samarqandga yirik-yirik san’atkorlar, shoiru-ulamolarni, hunarmandu-ustalarni tuplab koplab jom`e masjidlari, madrasalar, xonaqolar, saroylar va boshqa ulkan inshootlar qurdirdi. Amir Temur vafotidan song Temuriylar urtasida bolgan ozaro toqnashuvlar tufayli madaniyat rivojiga salbiy ta`sirini otkazdi.

XVI asrda arxitektura inshootlarining korinishi yanada takomillashdi, koplab jamoat binolari, qarvonsaroylar, koprik, sardoba, shaxarlarda hammom, tim va boshqa savdo rastalari qurila boshlandi. Monumental binolarning tarxi, qiyofalariga ozgartirishlar qiritildi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Jom`e masjidlari saroy tipida serhasham qilib qurildi, gozar va maxallalardagi masjidlar kishlik va yozlik qilib qurilib, qayta ayvonlar oyma ustunli va eshiklari ham oyma bezaklar bilan bezatildi.

XVII asrga kelib orta Osiyoda avj olgan ozaro feodal nizo va urushlar Eronning Xivaga qilgan xujumi va boshqalar arxitektura va badiiy hunarmandchilikka salbiy ta`sir korsatdi. Kopgina musavvir va hunarmandlar Xindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur boldilar. XVIII asr oxirlariga kelib me`morchilik va amaliy bezak san’ati rivojlana boshladi. Saroy qurilishlarida xalq me`morchiligi kompozitsiya uslublaridan foydalanib, ichqari xovli, hovuz, kop ustunli ayvon, sinchli imoratlar qurila boshladi. XVIII-XIX asrlarda

binolarning ayniksa ichki qismini koshin, tosh, ganch va yogoch oymakorligi bilan bezatildi. Bolarga misol qilib Xivadagi Paxlavon Maxmud maqbarasi, Qoqondagi Daxmai shoxon asori-atikalarini keltirishimiz mumqin.

Xalqimizning fidoyi farzandlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirhamid Yunusov, Shamsiddin g’ofurov, Yunus Ali Musaev, Usmon İkromov, qoli Jalilov, Sulaymon Xujaev, Xaydar Najmiddinov, Toshpulat Arslonqolov, Maksud Kosimov, Maxmud Usmonov, Olimjon Kosimjonov, Yoqubjon Raufov, Maxmud Oblaqolov, Abdulla Boltaev, Kodirjon Xaydarov, Ota Polvonov, Abdurazzok Abduraxmonov va boshqa bir qatorlari oz hunar sirlarini maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda yoshlarga orgatishni yolga quydilar. Keyinchalik esa oz uslubi, yunalishiga ega bolgan Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qoqon kabi yirik yogoch oymakorlik maktablari rivoj topdi.

Xiva yogoch oymakorligining rivojida Ota Polvonov va Sapo Bokbekovlarning ijodiy faoliyati aloxida urin tutadi. Bu maktab oymakorligi boshqa maktablarga qaraganda oyma naqshlarning maydaligi, zaminining kamligi, novdalarning zichligi, badiiy tuzilishi jixatidan uynoqiligi, ya`ni novdalarning spiralsimonligi aloxida ahamiyat kasb etadi.

Samarqand yogoch oymakorligi maktabida esa oymalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, osimliksimon girix va gulli girix naqshlarning kop ishlatilishi bilan hamda oyma yuzasining ranglanishi bilan ajralib turadi. İjodkor ustalar Abduxofiz Jalilov, Asatilla, Nasrulla, Nurali Nazrullaevlardir.

Toshkent oymakorligi maktabining yirik namoyondalaridan Sulaymon Xujaev, Maksud Qosimov va Ortiq Fayzullaevlardir. Toshkent maktabining boshqa maktablardan farki shundaki, oymasining kop qavatligi, urtacha chuqurliqda uyilib, islimiy, geometrik, ramziy naqshlar koproq ishlatiladi.

Qoqon yogoch oymakorligi maktabi ham oziga xosligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Yirik ustalardan Xaydar Najmiddinov va Qodirjon Xaydarovlardir. Bu maktab oymakorligining maxobatliligi, yirikligi, oymalarini chuqurligi va kop kavatliligi bilan farklanib turadi.

Xalq amaliy-badiiy bezak san’ati idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, mebel`, inter`er, ekster`er bezagi, gazlomolar bezagi va boshqa turli bezaklarda qollanadi. Amaliy-bezak san’ati nihoyatda qadimiy bolib, u kishilarning mehnat faoliyatlari va ehtiyojlari bilan boglik holda paydo bolgan, san’atning bu turining daslabki nomunalari tosh asrida paydo bolgan deb taxmin qilinadi. Uygonish davrigacha u uy hunari shaklida, keyin xalq badiiy hunarmandchiligi tarikasida shakllandi. Shaxarlarda amaliy-bezak buyumlari maxsus korxonolarda ishlab chiqiladigan boldi. Asta seqin xalq hunarmandchiligi buyumlari orasida yuksak badiiy saviyada ishlanganlari ham paydo boldi. Natiyjada, ular amaliy san’at namunalariga aylandilar. Turmushda foydalanish uchun tayyorlanadigan buyumlarning barchasi amaliy san’atga kiradi deb bolmaydi. Turmush uchun muljallangan kiyim-kechak, idish-tovoq amaliy san’at buyumiga aylanishi uchun ularga ma`lum talablar quyildi. yani, ular yuksak badiiy saviyada bajarilishi lozim. Bunda ularning tozulishi, shakli, bezak kompozitsiyasi, ranglari, materiali nazarda tutiladi. Bu talablarga javob bermagan takdirda, ular hunarmandchilik buyumi qatoridan urin oladi. Shuningdek, tiquv mashinalari erdamida tayorlanadigan buyumlar ham amaliy san’at namunalari bola olmaydi. Chunki, ular yukoridagi talablarga tola javob berolmaydi.

Jaxondagi xar bir xalqning oziga xos amaliy bezak san’ati bor. Masalan, Xitoyda chinnisozlik, Rossiyada matreshka uyinchoklar yasash, Turkmanistonda gilamchilik, Boltik buyi mamlaqatlarida dasturxon va sochiqlar tikish, O’zbekistonda esa qololchilik, misgarlik, chinnisozlik, kashtachilik taraqqiy etdi. Shunisi diqqatga sazovorki, amaliy-bezak san’atida xar bir buyumni tayorlashda xar bir xalq oz materiali, oz texnologiyasi, ish uslublari, bezak gullari va ranglarini qollaydi.

ozbek xalq ustalari qadimdan qollab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiatni va voqelikning shartli tasviri bolishiga qaramasdan oziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning aynan ozidan ramziy tarzda olingan.

Qadimda hunar o`rganish muqaddas sanalgan. Har bir xalq kelajak avlodlariga o`zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlar bilan qadrlangan. O`zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo`lgan desak xato qilmagan bo`lamiz. Masalan, Andijon viloyatida, Shahrixon, Samarqand viloyatida Urgut , Farg`ona viloyatida  Qo`qon, Marg`ilon, Namangan viloyatida CHustda xalq hunarmanchiligi  gullab yashnagan. Hunarmandlar o`zga davrda mahallalarga bo`linib yashaganlar, chunonchzargarlik mahallasi, pichoqchilik mahallasi deb yuritilgan. O`sha davrlarda yana misgarlik, bo`yrachilik, sandiqchilik, arava vozlik va kulolchilik, maxalalari mavjud bo`lgan. Masalan, 19 asr oxiri g0 asr boshlarida Buxoroda bo`yrachi mahallalar bo`lib u erda umuman, Buxorodagi bo`yra to`qiydigan ustalar yashagan. Bo`yrachi maxallasida 1g0 ta oila yashagan.

Har bir kasb-korlik mahallasida  qo`ni - qo`shnilar o`rtasida raqobat bo`lgan. CHunki kimning mahsuloti sifatli bo`lsa, xalq o`shaning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlashga intilgan. Har bir ustaning rastasi bo`lgan. Bozorda odatda bozor begi bo`lgan. U barcha rastalarga keltirilgan mollarni kuzatib ularga narh belgilab chiqqandan keyin savdo–sotiq boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori kasotga uchragan.

Usta o`tmishda xalq ustalarining eng bilimdoni hisoblangan. Chunki ular madrasada taqsil olib adabiyot, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi bilganlar. Qadimdan naqqoshlar naqsh yaratish sir assorlarini yozib qoldirmaganlar, faqat shogirdlari bilganlar. Shogirdlari usta bo`lgandan so`ng ular ham o`z shogirdlariga o`rgatgan. Shunday qilib, naqqoshlik kasbini an`ana tariqasida rivojlantirib kelganlar.

Usta o`ziga shogirdlikka o`z bolasini yoki qarindoshlaridan olganlar. Shogirdlikka 7-h yoshdan olingan.  O`qish o`rganish 7-1g yillar atrofida

bo`lgan. Ustozi shogirdlari bilan kunduz kuni ishlab, kechqurun esa ustoz rahbarligida savod chiqarilgan. Shogirdlar geometriya va kimyo kabi fanlarni ham o`rganganlar.

Shogirdning qo`lidan mustaqil ish kelgandan kiyin ustalar uning ishini muhokama qilib, so`ngra “usta” nomini berishgan.

Ustaning o`g`li ota kasbini yoshlikdan o`rganib borgan. Bu esa kelajakda yaxshi hunarmand bo`lishiga zamin yaratgan. Ustada o`g`li yoki farzandi bo`lmasa, bu kasbni eng yaqin qarindoshlari bolalariga o`rgatgan.

Xullas, kasb avlodlarga meros qolish an`ana holda bo`lgan: bolani usta oldiga olib borish, o`ziga yarasha tantana bo`lgan. Bolani ota – onasi va qarindosh urug`lari “bo`y”  degan bo`g`irsoq xolvatar qilib, ustaning huzuriga kelganlar va “bolani go`shti sizniki, suyagi bizniki” qabilada gaplar bilan uning ihtiyoriga topshirganlar.  Keltirilgan pishiriqlar  o`sha paytdayoq birgalikda tanavvul etilgan. Usta bolaga hunar o`rgatishdan tashqari butun o`qish davomida o`zi oziq-ovqat bilan ta`minlab turgan. Kasb o`rgatish tekin olib borilgan.

Ustoz shogirdga qattiq qo`l va talabchan bo`lgan. Chunki har bir hunarni o`ta nozik did va sabr-toqat bilangina o`rganish mumkun bo`lgan. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirddan pokizalikni, ish vaqtida chalg`imaslikni  egri va noma`qul ishlarga yaqin yurmaslikni, ustoz ruhsatisiz biror ishga qo`l urmaslikni , qat`iy turib talab qilganlar.

Usta shogirdga faqat hunar sirini o`rgatishdan tashqari uy yumushlarini bajarishga ham o`rgatib borgan. Shogird san`at sirlarini puxta egalagandan so`ng oq fotixa berilggan.

Marosimda ustoziga shogird bosh-oyoq sarpo, tugun in`om etgan.

Ba`zida ustoz shogirdi mustaqil ish boshlashdan qiynalmasligi uchun shu kasbda ishlatiladigan asbob va andozalar bergan. Agar oq fotixa olgan ba`zi shogird mustaqil ishlashni hohlamasa ustoznikida qolib ishlayvergan. Bunday holda ustoz bilan kelishib olib ish xaqi olgan.

O`zbek ustalaridan biri ganch o`ymakor usta Usmon Ikromovning hayot yo`li ibrati. Yosh Usmon usta Rasulhojining qo`lida h yil ishlaydi. Besh yilgacha xaftalik haqi 10 tiyindan oshmagan. Har payshanba kuni Rasulhoji shogirdi qo`liga 10 tiyin bergan. Usmon pulni olib bozordan onasi va ikki singlisiga egulik olib borgan.

Odatda shogird faqat usta buyurgan ishni qilishi kerak edi. Ustadan beruhsat shogird biror ishga urinsa yoki uning asboblariga teginsa kaltak erdi. Oltinchi yiliga o`tganda Usmonnig hafta ish vaqti o0 tiyinga, sakkizinchi yilga o`tganda esa kundalik ish xaqi bir so`mga chiqdi. Bu paytda u imorat ishidagi oddiy cho`pgarlikdan tortib, g`isht terish, suvoq, ganch o`ymakorligini mustaqil bajara oladigan bo`lgandi. Nihoyat sakkiz yil deganda Usmon Rasulxojidan oq fotixa olib, usta nomiga ega bo`lgan.

Naqqosh usta chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qogoz betini toldirish yoki oyma yuzini uyish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal kilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuktai-nazardan olib karaganda oymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas`uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bolsa, u holda uyishda ham, pardoz berishda ham xar qancha yutuqqa erishilsada ish kungildagidek gozal va jozibador chiqmaydi.

Xalq amaliy san’ati oziga xos juda kop namunalarga, rang-barang turlarga ega. Mehnat fani oqituvchilarining faoliyati bilan uzviy bogliq bolgan hamda maktab, litsey, qollej ta’limi mazmunini olib borishda amaliy sana`tining naqqoshlik, ganchkorlik va badiiy bezakning boshqa korinishlarida namoyon boladi. Demak, mehnet fani-oqtuvchisi shu korinishlarining birini oz sharoiti, hohish

irodasi va qiziqishiga qarab birortasini tanlab olib, uning tarixi, davomchilari kimligini, san'atni yaratishdagi sirasrorlarini mukammal ozlashtirishi lozim. Agar tanlangan amaliy san'at turi «Naqqoshlik» boladigan bolsa, bu san'atni ozlashtirib olish uchun quyidagi talablar quyiladi.

-naqqoshlik san'ati va uning hayotimizda tutgan orni

-naqqoshlik san'atida ishlatiladigan asbob-uskunalar va ulardan foydalanish yollari

-naqsh elementlarini organish, ijodiy kompozitsiya tozishda foydalanish qoidalari

-naqsh kompozitsiyasini turli joylarga moslashtirib tozish yollari va usullarin

-naqshda rang va boyoqlarni tanlash va ishlatish sirlari4g

-naqsh sirlarini oquvchilarga orgatishning metodik tomonlarini bilish.

## I.II. Yogosh buyumlari uchun asbob uskunlar va ulardan foydalanish

Kishining ruhiy holati ozi bajarayotgan ishida, yumushida oz aksini topmasdan qolmaydi. Kishi ruhiyatini qutarishda esa xonaning jixozlanishi, qulayligi, ozoda va orastaligi ham muxim ahamiyatga ega. Yogoch oymakorligi xonasini jixozlashda duradgorlik xonalarini jixozlashning umumiy qoidalaridan kelib chiqqan holda qisman bolsada foydalanish maksadga muvofik boladi. Xar bir asbob-uskunalar, xom-ashyolar, korgazmali qurollar, talabalarning tayyor ishlari, dastgoxlar tartib bilan oz joyiga quyilmogi lozim.

Yogoch oymakorligi ustaxonasida bevosita talaba va ukituvchi foydalanadigan maydon o0-60 $m^g$ bolsa, xar bir talabaning ish urni bir-biridan 60 sm, qatorlar orasi 1 m dan ozoqliqda bolsa yanada xarakatlanish qulay boladi. Bundan tashqari xonaga yoruglik tushishini ta`minlash, buning iloji bolmasa kundozgi yoruglik lampalari yoki stol lampalari bilan ta`minlash lozim.

Yogoch oymakorligi ustaxonasida talaba turli yumushlarini bajarishga togri keladi. Jumladan, chizmachilik, naqqoshlik, duradgorlik, oymakorlik va xokazo ishlarni tashqil etishda jaroxatsiz faoliyat korsatishga erishmoq uchun avvalo asbob-uskunalarni kozdan kechirib chiqmoqni takozo etadi. «Men bu moslamada ishlamoqdaman» deb iqqinchi moslamaga e`tiborsizlik turli kungilsiz holatlarni keltirib chiqarishi mumqin.

Faoliyatni boshlashdan oldin albatta maxsus ish kiyimini kiyib olish zarur. Turli asboblar bilan ishlashda, masalan, oymani bajarish uchun iskana va bolgani (yogoch tuqmoq, kiyankani) ushlash qoidalariga amal qilgan holda, ya`ni iskanani bushroq, bolgani esa qattikroq sikib ushlash zarur.

Dastgoxlarda ishlashda esa uni yurgizishdan oldin barcha simlar, ozellarning izolyatsiyasi butunligi kozdan kechiriladi. Agar ba`zi simlarning izolyatsiyasi ochilib qolgan, stanok erga ulanmagan bolsa, tayyorlanma ornatiladigan moslama mustaxkam maxkamlanmagan bolsa stanok yurgizilmaydi. Topilgan kamchiliklar zaruriy mutaxassisni yoki ustani chakirib tozatilgandan songgina ishlashga ruhsat beriladi. Agarda arralash, randalash va teshishga togri kelib qolsa tayyorlanmani urnatmasdan, salt holatda yurgizib korishdan oldin kesqichlar mustaxkamligini, keskirligini tekshirib korish zarur.

Stanok yurib turgan vaktida tayyorlanmani ulchab korish, stanoqdan olish va yana qaytarib quyish mumqin emas. Faqatgina bu ishlarni stanokni uchirgandan songgina bajarish maksadga muvofik boladi. Stanoqda ishlash jarayonida oyok tagida taxta panjaraning mavjudligi, stanoqda ximoya vositalarining butunligiga e`tibor berish joiz.

İsh urnining tartibli, ozoda, toza saklash xom-ashyolarni, taxta, gula, payraxa, kirindi va chiqindilar yigishda qolkop, xoqondoz, supurgi bilan ishlash zarur. Taxtalarni tilishda, yunishda, randalashda, arralashda, tigini va tishlarini utkirlash, charxlash, kirolini tuqishda qayroqtoshning xaraqatlanishiga e`tibor bermoq lozim. Qirindi va chiqindilarni bir joyga toplab quymaslik, yongin xavfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur. Dastgoxda ishlashga mavjud qoidalarni ozlashtirgan va rioya qiladigan talabalargagina maxsus daftarga imzo chekqandan keyin ruhsat etiladi.

Yogoch oymakorligida taxtachalarni oymaga tayyorlab olingach unga moslab axta (ulgi, nusxa) sini va xonani tayyorlab olinadi. Naqshning xar bir elementini, qismini, turini, guruhini oyishda “Oddiydan murakkabga, osondan qiyinga” tamoyiliga rioya qilib borish lozim. Naqshlarning kanaqa guruhga mansubligi, tayyorlanadigan buyumning katta yoki kichikligiga qarab, dastlab

naqshning yarim gajak, gajak, novdalari, chiziklari, bandlari balik sirtli iskana bilan kesiladi. Naqshlar atrofi tolik kesib bolingach, maxsus uchi egik iskana bilan naqshning zamini uyilib chuqurlashtiriladi. Tekislashda esa togri iskanalar ishlatiladi.

oymani bajarish davomida xar bir iskanani ehtiyotkorlik bilan oz urnida va urinli ishlatishni urganish lozim. Bu esa uyilayotgan yuzaning sifatli, korkam va jozibador chiqishiga olib keladi. İskanalarni ishlatib bolgach notogri joyga quyish, bir-biriga urintirish asbobni tezda utmas bolishiga olib keladi va oymani sifatiga putur etkazadi.

## OSOSİY QİSM

### ozbek xalq naqsh nomlari va buyumlarni bezashda ishlatilishi

Naqsh chizishni yaxshi bilmasdan turib yogochni xar qancha chiroyli qilib oymaylik boribir sozni etuq usta naqqosh deb hech kim ton olmaydi. Naqshlar qaysi bino yoki buyukni bezamasin, oziga xos uslub va texnalogiya talab qiladi. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma`noni bildirib, elementlari ma`lum tartibda takrorlanadigon osimliksimon, geometrik shakllar, hayvon, qosh va boshqalarning sxematik tasviridan tashkil topgan bezak.

Ganch oymakorligidagi ishlatiladigan naqshlar mazmuniga kora- osimliksimon geometrik, gulli grix, ramziy va boshqa turlarga bolinadi.

**osimliksimon naqsh**. Tabiatdagi borg, bond, daraxt, buta, guncha va boshqa narsalarni naqqosh tamonidan stillashtirib oligan shaklni ma`lum qonuniyatlar asosida-takrorlanishidan xosil qilingan.

**Geometrik naqsh.** Turlaridan biri grix bolib chigal,togun degan ma`noni anglatadi. Qondasiy naqsh murakkab naqsh turi. U geometrik naqsh turlaridan biri bolib turtburchak, uchburchak, aylana va yoshlar hamda kop burchaklardan tashkil topadi.

Tuzilishi jihatidan tugri chiziq,egrichiziq va aralash chiziqlardan tashkil topgan shrioga bolinadi. Geometrik naqsh ozluksiz ropportlardan tashkil topgan bolib, har bir ropport oz tozildishiga ega boladi. Evropada arabeska deb yuritiladi. Geometrik

naqsh orta Osie san’ati qadimdan mashxurdir. Utmishda ota -babolarimiz korgan muxtasham binolar xazirgi kungacha maftunkor jilvosini yoqotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar xar bir tomoshabinni xayratga solib kelmoqda. Xattoaki chet ellardan tashrif buyirgan saexatchilar ham jumkoryatimizga qadimiy yodgorliklarni, badiiy did bilan ishlangan naqshlarni korib lol qolmaqtalar. Buxoradagi Ulugbek madrasasi, YuNESKO muxofasidagi İsmoyl Samoniy makbarasi, Kalon minarasi, Samarxanddagi Shoxi-zinda makbarasi, Guri Amir maxbarasi, Ulugbek, Sherdor, Tillakori madrasalari va boshqalar sharxning nodir gozalligi soddaligi hamda naqsh motivlarining ulugvorligi bilan kishilarni sexirlab kelmoqta. Yuzlab minglab xalq me`morshiligining kabarik qollari bilan yaratilgan yodgorliklardagi jonli naqshlar xuddi tabiyatning gozallik olamini quylaetganday tuyiladi va kishilar ruhiyatiga qutarinki ruh bagishlaydi. Shunonchi Samarxanddagi asrlar dovomida musulmon sharxida dong toratgan  oliy bilim maskani Ulugbek madrasasini tomosha qilar ekanbiz, uning talim tarbiya maxsadida kozlab baen qilinganligini naqshlar bezagi orkali sezish oson. Madrasaning bezagidagi bir-birini kesip utgan behisob chizgilardan kop burchakli yuldozlardan toshqil topgan naqshlar xuddi qoinotdagi sharaxlab turgan naqshlarni asrlar osha xikoya qilib turganday turiladi. Ana shu bir birini kesip utgan behisob chiziqlar, xar xil burchakli va qirrali yuldozlardan tashqil topkan geometrik naqshlarni **grix** dep yuritiladi.

**Gulli grix.** osimlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topgan. Uning elementiga yuqorida sanab utilgan geometrik va osimliksimon naqshlar kiradi.

Ramziy naqshlar. Esa kabutar, uroq va bolga, sher, boliq, davlat gerbi va boshqalarni stilashtirib tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topgan. Bu mashgulotda biz borg, gul, margula va boshqalarni chizamiz.

Barg. osimliksimon naqsh elementi bolib naqqoshlar tamonidan tabiatagi osimlik bargini stillashtirib olingan tasviri. Ular tuzilishiga kora oddiy va murakkab turlarga bolinadi. Oddiy barglar uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshqalar kiradi.

Murakkab barglarga esa kop barg,  shobarg, sebarg va boshqalar kiradi. Ularning dan ortik turlari bor.

**Guncha.** Tabiatdagi gunchalarni usta tomonidan stilashtirib olingan tasvirdir.

GUL. Tabiatdagi gullarni naqqoshlar elementi bolib navdalar bir-birini boglash va yuzlarini toldirish uchun xizmat qiladi. Shukufta tuzilishi jihatidan turlicha boladi. **Gul** naqsh sozi urnida ham ishlatiladi. Gul soziga naqshning nomi ham kushib aytaladi, chunonchi guli raftor , davra gul, islimiy gul, guli yakraftor , guli seraftor, gulson va boshqalar bolib ularning w00-ga yaqin turi bor. Amaliy san`atning barcha turlarida uchraydi. Oltin , yogoch , mis, kumushga  uyib chizib eki kabartib ishlanadi, badiiy buyumlarda oyma, kashta tarizida tayorlanadi, zarduzlik buyumlariga va kiyimlarga zar bilan tiqiladi. ozbekistonning milliy gullari  mazmundorligi va rangbarangligi bilan ajralib turadi.

**Boglam va sirtmoqlar**.- osimliksimon naqsh elementlari bolib, bandi rumiy boftoning oddiy turi hisoblanadi. İkki tanobini uchinchi chirmoqsimon egib oziga boglashni sirtmoq deyiladi.

**Bofta-** tanab oylanib utib xosil qilgan shakl, islimiy naqsh elementi.

**Margula-** qum chiziqli gojak, osimliksimon naqsh elementi. U misgorlik, naqqoshlik, ganchkorlik va zarduzlik va boshqalarda ishlatiladi.

**Band-**(novda) osimlik bondi, osimliksimon naqsh elementi bolib, u gullarning novdasi hisoblanadi. Band tabiatdagi daraxt yoki osimlikning novdasini stillashtirib olingan tasviri. xarbir naqsh elementi singari bandning ham kompozitsiyada qollanilishining oziga xos qoydalari bor. Masalan, bandning aniq bir olchamda bolishi, kompozitsiyada gullarga nisbatan saqlanishi, u naqshda gullar, barglar va tanoblarning tagidagi otishi va haqazo.

Biz yuqarida aytib otilgan naqsh elemenitlarining nomini puxta bilib olishimiz kerak. Chunki keyinchalik naqsh tuzishda va unga nom  quyishda muhim rol` oynaydi.

**Tanob va navdalar.** Tanob-arabcha chilbir, arqon degan ma`noni beradi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosida tashkil etuvchi negizi va naqshga shakl

beruvchi chiziq tanob  deyiladi. orto Osiyo naqshlarida bir xil yogonliqdagi chiziq bolib, ustalarimiz tabiat manzarasida uchiraydigan anhorning shartli tasviri deb olganlar. Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi novbatda tanob tortib, keyin navdalarni chizadi, songra navdalarni yonalishga moslab gullar joylashtirib chiqadi. Tonab ustidan hech qachon gul, novda, yoki barg bosib otmaydi. Tanoblar bir-birini kesib otmay bir-biriga parallel` bolsa, bunday nusxani «Qosh tanobli islimi» deb ataladi. Agar togallangan va mustaqil kompozitsiya bolsa, «qosh tanobli namayon» deb ataladi.

osimliksimon naqsh elementlarini organish, ma`lum qanun-qoydalar asosida mashq qilishdan boshlanadi. Buning uchun kotak daftar, lineyka, qora qalamlar o4q ochirgichlar, ortacha yumshoqliqdagi qora qalam, rasm daftari va boshqalar. Dastlab tugri, ogma, egri, tik, aylana va yoylarni koz chamasida teng bolaklarga bolish boyicha oddiy mashqlar bajariladi. Bu mashqni yaxshilab ozlashtirib olganingizdan song asosiy mashqqa otamiz.

osimliksimon naqsh elementlarini  quyidagi  gruhlarga bolib chizishni mashq qilamiz. Buning uchun katak daftarda quyidagi tartibda qora qalamda rasmlarda berilgan elementlarni qoldan boshlab, qaerda  togatishni qunt bilan organib olamiz, katak daftarda lineyka yordamida  qalamni engil yurgizib sxematik kataklar chizib, shu qataklarga naqsh elementlarini chizishni mashq qilamiz. xar bir betga bitta naqsh elementini qayta-qayta chizish mashq qilinadi. Bunda qalamni qattiq bosmasdan bir xil yogonliqda chizib simmetriya va assimmetriyaga katta e`tibor berish kerak. Elementlarni rovan, togri, ingichka, va toza chizish muhim ahamiyatga ega.

xar bir naqshning oz nomi va mazmuni boladi shunday ekan naqshlar naqshlanadigan buyumning shakli hamda qanday maksadda ishlatilishiga qarab tanlanadi va oziga xos nomlanadi. Masalan, turunj,islimi,madoxili,xoshiya,yak raftor, lula xoshiya, bandi rumiy, islimiy guldona, islimiy madoxil,xashti tufsor,sarnigon,tufsori kanot, xonagi burtma ,xashti davra, chorsar, davri sitora, shashdona, parrak, oftoba, patnis islimi, lola islimiy, bofta islimiy, islimi shukufta, shashdona, elpigich zanjira, gajak islimiy, parrak, oftoba, erqin islimiy, bodom

islimiy, bodom guli, aylanma islimi, bargli islimi, bargli raftor, mexrob islimi, gulli aylanma islimiy ,gulli raftor islimiy, patnis gulli islimiy, besh raxli girix, t-q0 raxli girix e-t  raxli girix ,t-q0-qy raxli girix, gulli girix, shoxbarg, islimi, kush bargli islimi, munabbati girix, munabbati gul, ruta, anorgul,  morpech va boshqalar. osimliksimon, geometrik, ramziy naqshlarga kiradi.

**Ruta** (ruscha - bordyur) ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi , xoshiya naqsh . Chizilaetgan naqsh nuskasining xarakteriga qarap ketma ket , tunqarma usullarda ulanishi mumqin. Naqqosh tunqarma usilda takrorlanuvchi ruta chizaetganda taqsim asosini qogozga (ikkiga buklab) chizadi, axta aylantirib, undon foydalanadi. Tunqarma ruta kompozitsiyada bir, eki, ikki , bazan uch chiziq nuktasi (Odatda urtada boladi.) Bush joylarni tolatishga xizmat qiladi. Ketma ket ulanuvchi rutalar bir, ekki uch yunalichi bolishi mumqin , xar yunalishda bittadan chiqish nuktasi boladi. İkki chiqish nuktali rutalar (aylantirma nuska ) deb ataladigan kompozitsiya ham uchraydi. Taqsim chegaralaridagi ikki chiqish nuktasidan chiquvchi novdalar soat yunalishiga  uxshatib, ikki nuktani bosib utadi . (Yani ikki nuktadan chiqqan novdalar xalqa xosil qiladi). Toldiruvchi elementlar ham novdalarning urtasiga mostlab chiziladi.

**İslimi duraftor** ikki yunalishli ruta islimi (nabotiy) xoshiya naqsh . İslimi duraftor barg , kortak, gul va boshqa elementlardan tashqil topgan boladi. Bir biriga uzliksiz uralib ketadigan islimi naqshlarni takrorlanishadan xosil boladi. İslimi duraftor egosh tosh, kumush, oltin, devorga matoga va boshqa narsalarga uyib, tikib, chizib, buyab ishlanadi. İslimi duraftor xalq amaliy san`atining barcha turlarida keng tarqalgan . Uning tozilichiga ukshash leqin ularning yunalishlar saniga qarab yakraftor islimi va sharroftor (turt yunalishi ) islimi deb yuritiladi. İslimi duroftorni bir tomanga va xar ikkala tamonga ulanadigan xillari bor. İslimi duroftorning mexrobli duroftor islimi mexrob shaklidan tashqil topgan  ikki yunalishli islimi naqsh turi va boshqa turlari  bor

**Namayon**  farscha soz bolib , korinish , manzara demaqdar . Ruscha panno . Namayon eng mukammallashgan, etuq naqsh kompozitsiyasi  Namayon vokielikning umumlashgan tasviriy obrazini ozida aks etadi. Masalan, chamanzor,

bogu bustonlar, darelar,  gullar,barglar va boshqalarni shartli aks ettiradi. Xoshiya naqsh nomoyonning badiiy qilib korsatishda muxim rol` uynaydi. Namayon xech ekka uldanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir . Namayon  murakkab naqsh turiga kirib uning osimliksimon , geometrik, gulli girix, ramziy va boshqa turlari mavjud .

Namayon naqsh kompozitsiyalar oziga xos tamonlarga ega . Usta namayonni ichlashda uning ozoqdan va yaqindan korinishini oloxida hisobga oladi. Namayon osimliksimon naqshdan iborat bolsa , unda naqshning band va tanoblarini darajalarga bolib chiqadi. Gulli girixli namoyonda esa girix asosiy , osimliksimon naqsh esa  toldiruvchi rulini uynaydi . Namayon faqat girixdan tashqil topgan bolsa unda asosiy va toldiruvchi girixlarga bolish mumqin , yani yirix girixlarni ichiga mayda girixlar chiziladi. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tozilgan boladi. XIX- asrning urtalarida xar bir vaxoning namayonlarini kozatsak oziga xos bolib , ular bir biridan fark qiladi. ya`ni naqshning xarakteri ornament uslubiga ega. Masalan Xiva naqqoshligida namayonlardan bandlar bir-biri bilan spiralsimon holda ulanib ketadi. Barg gul`ar kam ishlatiladi. Ularning kompozitsiyasi dinamik xarakterga ega . Toshkent ustolarining namayon kompozitsiyalari oziga xos xusisietga osimlak gullarining kopligidadur . Fargona naqsh kompozitsiyasida tabiatdagi gullar , barglar, mevalar, (lolagul, atirgul, badomgul, majnuntol, anor va boshqalar,) togridan togri tasvirlanadi. Namayonning majnuntol namayon  chorsi namayon  va boshqa atamalari bor.

**Madoxil** (arab astona ,kirish , eshik ) chapu- rost  takrorlanuvchi islimi naqsh turi , u kompozitsiyada chiqish nuktasi (manbay, ildizi)bolib hisoblanadi . Madoxil korinishi jixatidan xilma-xil bolib, guncha, lola, gul, uch barg, va boshqa shakllardan iborat . Ana shu shakllarning orasiga naqqoshlar xar xil gullar kiritib. Uziga xos nom quyganlar shunonchi madoxili lola (guncha lalo chakliga yaqin qilib ishlangan madoxili naqsh turi) kush madoxili (lalo guncha gul va boshqa shakldagi madoxilining biri yuqariga , biri pastga qaratib chizilgan nuskasi) majoxili islimi (naqshning taqsimi asosini madoxili shakli egallovchi islimi naqsh turi). Madoxili naqshlari arxitektura egosh, ganch, tosh, mis oymoqorligida , naqqoshliqda,kashtadozliqda  va boshqalarda keng tarqalgan. Madoxili turlari

borgan sari kopayib bormoqda. Va zamonaviy buyumlarning uy rozgor buemlarin bezashda keng qollanilyapti.

**Turunj** arabcha «limon»degan ma`noni bildiradi. Ruscha medal`on naqshlarda kompozitsiyaning marqaziga chiziladigan naqsh turi . orto Osieda oziga xos korinishga va mazmunga ega bolib , qadimdan ichlatilib kelinadi. Turunj naqshni ng korinishi, limon shaklida bolgani uchun uni shunday deb yuritiladi.Turunj xech qanday naqshga ulanmay muallak turadigan kompozmxiya bolib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan. Uning xozirda doira, t-q0 raxli yuldoz, oval, rombı, ellips, shakllari bor. Turunj nuskasi r, i, quga bolinadi.Naqqoshlar kopincha turt burchakli kompozitsiya chetiga oddiy naqsh , ya`ni ruta ishlab urtasiga turunj ishlaydilar .Turunj kopincha devor urtasiga , shift marqaziga, kashta, gilam markazlariga bajariladi. Usto turunj ulgisini tayorlashda qogozni r,i eki quga buklab bir bolagiga nuska chizadi. Shu naqsh chiziqlarini egnada teshib songra qogoz eyilsa kalgon bolaklariga ham nuskaning ozi takrori xosil boladi. Tayorlangan turunj nuskasini kerakli yuzaga tushiriladi.

**Anorgul** naqqoshliqda, qololchiliqda , miskorliqda, kashtashilik va shu singari turlarida ishlataladigan osimliksimon naqshdir. Anorgul naqshi qadimdan ishlatilib kelinaetgan naqsh turi bolib , kopincha Fargona naqshlarida ayniksa kop ishlatiladi. Bu naqsh turi xaetdagi tuqinlik va tuqin soshin ramzi ifodolangan Anorgul naqsh kompozitsiyasida anorni ikki xil , ya`ni naturalistik ,ya`ni tabiatda qanday bolsa, chundoy tasvirlaydilar, goxida stillashtirilgan naqsh uslubida tasvirlanadi.Anor tasvirlangan bu naqshda anorning kopincha ichgi qismini ham korsatib tasvirlaydi.

**Grix-** forscha. Chigal, togun degan manoni anglatadi. Xandaysiy naqsh. Murakkab naqsh turi. Geometrik naqsh muayyan taxsimlarga ega boladi. Xar bir taxsim oz tuzilishiga ega boladi. Grix orta Osiyoda va Yaxin Sharxda keng tarxalgan naqsh bolib, XII-XIII Asirlarda ayniksa orta Osiyoda juda keng taraqqiy qilgan. Pokiston, Turkiya, İspaniya, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng tarqalgan joyi orta Osiyodir. orta Osiyoda grixlarning juda kop turi mavjud. Bu grixlarni arxitektura minoralardan tortib kitob varagigacha bezatilganligining

guvoxi bolamiz. Albatta biz tariyxka nazar tashlar ekanmiz usha zamaon uchun grixni chizmachilik asboblari matematik formulalar asosida ishlanishi bu katta ilmiy kashfiet edi. Bu grixni ishlagan ustalar matematika fanini egallagan kishilar bolganlar. Olimlarimiz ana shu grix ishlash sirlarini topish maxsadida kub izlanishlar qildilar, leqin bu jumboklarda tola ma`lumotlar olaliodilar. Chunki usha vaqittagi ustalar bu geometrik naqshni korishni sir dep bilip qogozda eki tushintirip qoldirmaganlar. Shuning uchun ham otadan-bolaga utib unitib yuborilgan. Ana shu sabablarga kora xazirgi zamonimizda ham kopgina ustalarimiz grixni echimini topishga kiynaladilar. Sharxning mashkor olimlaridan Abdulvafo al Bozjoniy (940-ooi) ozining kitoblarida w0 ga yaqin geometrik naqshlar echimi togrisida ezib qoldirgan. Bolarda grixning ba`zi oson yollarini tushintirip utgan. Masalan, uning kitoblaridan birida korilish va geometrik naqsh echimi togrisida ezilgan. Bu kitob xozir Parijdagi mozeylardan birida saklonmoqta. Abdulvafo al Bozjoniy ozining asarlarida grixni tayorlash usullarini korsatib utsa-da, bizga grix echimi togrisidagi ma`lumotlar berilmagan. U ozining kitobida kvadratni uchga beshga bolishning eng sodda osan yollarini keltiradiki, bu osha davr uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyagka molik edi. Murakkabligidanmi eki yasash qonun-qogiydalarining asta-seqin unutib ketganligidanmi, xullos biz uchun noma`lum XVII Asirga kelib, grix san’ati juda kam ishlatiladigan boldi. Grix chizadigan ustalar nixoyatta kam qolgan. Grix chizish murakkab bolganiuchun hamma ustalar chiza olmaganlar. Usha davrlarda grix naqishini yaxshi bilgan ustalar etuq ustalar bolib hisoplpnganlar. Shunday ustalardan biri Usta Shirin Muradov bolgan. U yangi grixlarni osanlik bilan chiza olgan. U oz davrida grixni piri hisoblangan, uni grxkor usta deb hisoplaganlar. Shuning uchun grix chiza olmagan ustalarni etuq usta deyilmagan.

Grix osimliksimon naqshlardan fark qiladi. osimliksimon naqshlar tabiyattan barg, gul, novda va boshqa narsalarni umumiy shakli olinib geometrik shaqilga keltirilganligidir. Gaplar sozlardan sozlar esa xariflardan toshqil topqanday grixlar ham oz elementlaridan toshqil topadi.

Geometrik naqsh elementlari turt qisimdan uchburchaklar, turtburchaklar, kopburchaklar, va egri chizixlardan toshqil topadi. Shu grix elementlari erdamida minglab naqishlar yasash mumqin. Grix ham naqsh turlari singari taxsim dep ataladigan juda oddiy elementdan toshqil topadi. Shu taxsimldarning takrorlanishidan togal naqsh kompozitsiyasi xasıl qilinadi. Geometrik naqsh kompozitsiyalarini tozishning oziga xos turli isrlari mavjud bolib, siz bilan grix naqsh tozishning ba`zi bir tomanlarini urtakloshmakshimiz. Yangi grix kompozitsiyalari tozishning quyidagi sir-asarlarini sanab utmakchimiz.

1 Grix elementlarini kombinaxiyalash asosida naqsh kompozitsiyasini xasil qilish.

A) turtburchaklar kombinaxiyasi asosida.

V) muntazam kopburchaklarning kombinatxiyasi asosida ,

G) egri chiziqlar kombinatxiyasi asosida,

q Girix elementlarini ba`zi tamonlarini davom ettirish bilan.

w.Kombinatxiyaga ba`zi elementlarni kushish bilan.

e.Kombinatxiyadagi naqsh elementlarining ba`zi tamonlarini ozgartirish bilan.

r.İkki xil girix elementlarini biriktirib .

t.Ba`zi girix kombinatxiyasidagi ayrim bolaklarni olib tashlash natiyjasida.

y.Girix kompozitsiyalarini bir necha mustaqil kompozitsiyalarga ajratish.

u.Turli tur chiziqlar erdamida xar qil kompozitsiyalar tozish va xakozalar.

Girix ma`lum mazmunga va xarakterga ega boladi. Tabiatda xar bir osimlikning nomi bolgandek girixlarning ham oziga xos nomlari bilan yuritiladi. Agar girix besh kirrali yuldozdan iborat bolsa, besh raxli girix deb ataladi. Agar y va q0 kirrali yuldozsimon elementlardan iborat bolsa, olti-un raxli girix deb nomlanadi. Agar t,u va qw xirrali yuldozsimon elementlardan iborat bolsa, besh-saqqiz-un ikki raxli girixlar deb nomlanadi va xokazo.

## Naqqoshliqda ishlatiladigan materiallar va ularning turlari

Yogoch buyumlariga naqsh solish mashgulotlarida foydalaniladigan yogoch materiallari, ularning turlari, fizik va kimyoviy xususiyatlari, zaxiralari va boshqalarni bilish muxim ahamiyatga ega.

Yogoch materiallari turli jinsdagi daraxtlardan olinadigan xom-ashyo. Binokorliqda, korilishda, mebelsozliqda, yogoch oymakorliqda asosiy xom-ashyo sifatida ishlatiladigan yogochlar daraxtlar tanasidan olinadi. Daraxt tanasi ozak, yogochlik, shoxlar, tola va pustloklardan tozilgan. Yogoch xom-ashyosi quyidagi guruhlarga bolinadi

a) tabiiy xom-ashyo;

b) turli bozilishlarga, chirishlarga qarshi antiseptik moddalar shimdirilgan yogoch xom-ashyosi;

v) Presslangan yogoch xom-ashyosi;

g) elimlangan yogoch xom-ashyosi;

d) qatlam-qatlam yogoch xom-ashyosi;

e) qatlamli presslangan yogoch xom-ashyosi;

yo) plastik yogoch xom-ashyosi maydalangan kipik, payraxa va kirindilarni organik va mineral boglovchilar bilan elimlab, qayta ishlab tayyorlanadi.

Yogoch oymakorligida asosan 1-guruhga kiruvchi, ya`ni, tabiiy yogoch gulalardan olinadigan taxtalar, yunilgan xom-ashyo ishlatiladi.

ozbekistonda yogochlarning yumshok, qattik va juda qattik gulalari olinadigan nina bargli va yaproq bargli turlari mavjud.

Daraxtlar buyiga qarab q guruhga bolinadi

1.qo m dan baland - chinor, terak, tut, qora qayin, qaragay;

g. go m dan qo m gacha - qayragoch, yongok, oq qayin, tol, qatrangi;

3. go m gacha - zarang, chetan, shumurt, mevali daraxtlarga hamda butalarga bolinadi.

Nina bargli daraxtlardan olinadigan yogochlar korilishda, jumladan, yogoch oymakorligida koproq ishlatiladi, chunki ularning tarkibida smolasi koproq, tez chirimaydi, taxtasi togri, ozun, sillik, ishlov berish oson hisoblanadi. oymakorliqda ishlatiladigan rangiga, xiliga, turiga, tabiiy guliga, tovlanishiga qarab tanlanadi va turli mevali, shu bilan birga, yaproq bargli daraxtlar ham ishlatiladi.

Yogoch oymakorligi yasayotgan buyumiga qarab yogoch materiallarining xususiyatlari, daraxtlarning turlari, rangi, ishlov berishning qiyin-osonligi va ishlov berilgandan keyin buyumlarning sifatli chiqishi va saklanishini bilishlari uchun yogochlar olinadigan daraxtlarni urganishlariga togri keladi.

***Toq teragi*** - yapalok bargli, pustlogi sargish, yogochi yumshok, engil, okish rangli hamda tez chiriydi, yogochini ishlash oson, engil buyumlar gugurt kotisi, uyinchoklar va fanerlar tayyorlanadi. oymakorliqda ishlatish tavsiya etilmaydi.

***Karagay*** - igna bargli, yogochi puxta, engil, namga chidamli, tik va togri taxtalar olinadi. İshlov berish, arralash, ranglash oson, yogoch oymakorligida va boshqa soxalarda keng qolamda ishlatiladi.

***Baqaterak*** - ozbekistonning deyarli barcha viloyatlarida usadi, pustlogi sillik, tanasi sershox, togri usmaydi. Namga chidamsiz. oymakorliqda kam ishlatiladi.

***Mirzaterak*** - tanasi tik, togri, kam butokli boladi. Namga chidamliligi yukori emas. Korilishda va oymakorliqda ishlatiladi.

***Oq qayin*** - bargli, yogochi qattik. Namga chidamli. oymakorliqda kam, korilishda koproq ishlatiladi.

***Qora qayin*** - bargli, rangi tinik. Namga chidamsiz. Yogoch oymakorligida keng ishlatiladi.

***Shumtol*** - bargli, kam yoriladi, kovushkok yogochli, mustaxkam, oymakorliqda kop ishlatiladi.

***Chinor*** - kop yillik, bargli, kop shoxli, mustaxkam va qattik, rangi kizgish koramtir, laklansa ajib bir chiroy bagishlaydi. oymakorliqda keng ishlatiladi.

***Nok*** - mevali, bargli, yogochi tuq jigarrang. oymakorliqda ishlatiladi.

***Urik*** - bargli, mevali, yogochi kizgish, qattik, xar xil mayda buyumlar, laux, kotichalar tayyorlashda, oymakorliqda keng ishlatiladi.

***YOngok*** - pustlogi kukish, kop yillik, yogochi koramtir, kimmatbaxo yogoch, yaxshi uyiladi va yaxshi pardozlanadi. Yogoch oymakorligida keng qolamda ishlatiladi.

Yogoch oymakorligida ishlatiladigan turli xom-ashyolar ozining pishikligi, nuksonsizligi, kort emaganligi, rangining tinikligi, mustaxkamligi, laklansa yanada gozal tovlanishi, kop yillar davomida yorilmasligi, buralmasligi, namga chidamliligi, pardozlanishi, uyishda koporilmasligi va shunga uxshash oziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yasayotgan buyumga mos keladigan materiallardan tanlash aloxida ahamiyatga ega.

Ma`lumki, yogoch oymakorligida yogochlarning ishlov berishga tayyorlashda turli elimlardan foydalaniladi.

***Elimlar*** - suyuklangan yukori moleqolyar anorganik va organik moddalar yoki ularning eritmalari bolib, turli materiallarning bir-biriga yopishtirish uchun ishlatiladi.

Elimlar tabiiy, son`iy hamda rezina elimlarga bolinadi.

***Tabiiy elimlar*** - xayvonlar (suyak, sut, teri, pay va boshqa) va osimliklar (daraxtlar shiralari, kraxmal kipiklarni qayta ishlash natijasida) maxsulotlaridan olinadi. Namlikka ancha chidamsiz.

***Son`iy elimlar (smolalar)*** - polimerlar emul`taxiyasi, shuningdek, erituvchi kushilgan kushilmagan smolalar birikmalaridan iboratdir. Turli materiallar, shisha, plastmassa, metall, chinni, penoplast, suyak, qogoz va boshqalarni biriktirishda keng qolamda ishlatiladi. İssik, sovuk, namlik, ishkalanish, egilish, buqilish va siljish kuchlanishlariga yaxshi chidaydi.

***Rezina (kauchukli) elimlar*** - tabiiy va sintetik yol bilan olinadi. Tabiiysi kauchuk daraxti smolasidan, son`iysi rezinali birikmalarning erituvchilarda (benzin, kerosin, spirtdagi) erigan korinishidir. Turli jinsdagi materiallarni, masalan, yogochni xementga, metallga, shishani, plastmassani gazlamaga biriktirishda ishlatiladi.

Yogochsozliqda, duradgorliqda, oymakorliqda kopincha xayvon elimlaridan kazeinli elimlar ishlatiladi. Namlikka chidamli kazein (lot-kasgeis-pishloq) - murakkab oqsil bolib, kimyoda fosfoprodlit tuzilishini namoyon qiladi. Sutning ivishi jarayonida, uning tarkibidagi kazeinogendan xosil boladi. Tozli, ishkorli muxitda eriydi.

Yogoch oymakorligida taxtalarni oymakorlikka tayyorlashda bir-biriga biriktirilib, uyiladigan buyumning asosi tayyorlab olinadi. Taxtalarning uyiladigan yuza qatlami silliklanib, Tobga keltiriladi. Avvaliga mayda tishli arrada arralanadi, keyin esa mayin burrada arralanadi. Tekis qilib randalanadi va bir-biriga tekkizib, mayda tirkishlari yukligiga ishonch xosil qilinadi, shundan songgina taxtalar birlashtirilib, pardozlanadi. Pardozlashda mayda kumli jilvir qogoz, baxmal bilan artiladi. Elimlash jarayoni amalga oshiriladi va taxtalar biriktiriladi. YOpishtirilayotgan yuza oraligida kirindi yoki bushlik qolmaganligiga ishonch xosil qilish uchun bir-biriga bir necha martalab ishkalab yuboriladi.

**Axta va shpaklevka tayyorlash texnologiyasi.**

Shpaklevka -nemischa korakcha, yuzalarni buyash hamda pardozlashdan oldin sirtni tekislash uchun siriladigan kuyuk massa. U bur (mel) egoch elimi, alif moyi kabi moddalarni kushib tayyorlanadi. Yyuzalarni shpatel` erdamida kuyuk massa surtib tekslashga shpaklevkalash deb yuritiladi. Shpaklevkaning ikki turi bor. Elimli (kleevoy) shpaklevka, moyli (maslyanoe) shpaklevka. Elimli shpaklevka uchun avval burni (mel) yanchib, elaqda yakshilab elanadi. Egoch elimini quydirmasdan suvda eritiladi, q kg egoch elimiga e litr suv hisobida asta-seqin egoch taekchaga tez-tez aylantirilib, eritilib bolingandan song elangan burni asta-seqin elimli suv sirtiga solinadi, bir vaqtda egoch taekcha bilan yakshilab aylantirib aralashtiriladi. Keyin esa q kg elim hisobiga 0,e litr alif moyi kushilib yana aylantiriladi. Agar suyukroq holda bolsa bur yana kushib aralashtiriladi. Egochda qancha kop aylantirsa, shpaklevka shuncha yakshi etiladi. Shpaklevkani tayyor bolganini bilishuchun shpatelga shpaklevkani olib koriladi, agarda u oqib ketmasa, demak u tayyor. Shpaklevkani eki kuyukroq tayyorlashimiz qaysi joyga ishlatilishimizga boglik. Agar ishlatishdan avval ikkita shpatel` erdomida ozgina shpaklevkani obdan bir-biridan utqazib izgilab, aralashtirib keyin kerakli joyga surtish boshlanadi. e xil shpatel` erdamida yuzag bir tekis surtib chiqiladi va u korigandan song choklari ustidan w-e marta yana shpaklevka surtiladi. U korigandan song urtacha va mayda donali kum qogazda silliklanadi. Song egoch

elimini suvda eritib doqada eki mayda kozli elaqdan utqazib egoch sirtiga katta, ya`ni qi-w0 nomerli muyqalamda surkab chiqiladi. Egoch elimli suv biroz sovitib suriladi, chunki chotka ishdan chiqadi. Korigandan song ok guash` bir tekisda surkab chiqiladi. Kotgandan song katta nomerli muyqalamda tekislab chiqiladi. Agar shu joyga tilla xal eki kumush hol berilmoqchi bolsa, Uruk elimini suvda eritiladi. Uni mayda kozli elaqdan eki doqadan soziladi. Biroz sovigandan song tilla hol eki kumush hol solib aralashtiriladi. Eritma urtacha suyukliqda bolishi kerak. Bu korishmaning egoch sirtiga katta muyqalamda bir tekisda gurunt rangi beriladi. Korigandan song ustini silliklash maksadida muyqalamda ishkalab chiqiladi. Bir eki ikki sidra buyaladi. Boyoq korigandan song naqsh nuskasi axta erdamida tushiriladi. Katta fondda (yuzasidan) buyash boshlanadi. Naqshning eng katta tagi (foni) ranglanadi, keyin qichiq tagi ranglanadi, naqshning gullari va barglari turlanadi, naqshlarni bandlariga gullari va barglariga targil beriladi, nixoyat naqshning ok bandlari va obisi tortiladi.

## Axta (ulgi) tayyorlash.

**Axta-** naqsh eki biror rasmni shaffof (kal`ka) qogozga chizib, chiziq yollari igna bilan teshilib, buyum eki biror sirtga tushurish uchun tayyorlangan andaza. Xorazm ustalari axtani ulgi deb aytdilar. İlk davrlarda ustalar sirtiga togridan-togri chizib, uyib eki chizib bueganlar, keyinchalik axta orkali tasvirni tushurish uchun qulayligini sezib foydalanib kelganlar. Xalk ustalari naqsh kompozitsiyalarining eskizini va axtalarini yillar davomida saklab kelganlar. Ular xoxlagan vaktlarida bu axtalardan ijodiy foydalarnganlar. Axtalar xatto otadan-bolaga utib saklanib kelinib, bir katta boylik hisoblangan. Ustalar axtani maxsus sandiklarda saklab kelganlar. Xozir bunday axtalar ustalarning ozida va davlat arxivlarida saklab kelinmoqda. Masalan, mashxur ganchkor usta Shirin Murodov, Toshpulot Arslonqolov, naqqoshlar T.Tuxtaxujaev, Jalil Xakimov va boshqalarning tayyorlagan ayrim axtalari arxivlarda saklanmoqda. Axtani tayyorlashning ilk bor naqsh ishlanadigan yuzaga muljallab yupka shaffof qogaz

olinadi. Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya uki buyicha shaffof qogazni ikkiga, turtga va xokazolarga buklanadi. Buklamani bir qismiga naqsh chiziladi. Naqshli shaffof qogozni yumshok estikcha ustiga quyib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshni yirik va maydaligiga qarab igna tanlanadi. İgna teshigi oraligi naqshning mayda va yirikligiga boglikdir. Agar naqsh mayda bolsa igna oraligidagi masofasi shuncha yaqin boladi. Naqsh nuskasini teshib bolgandan keyin shaffof qogoz eyib yuboriladi, natijada naqsh nuskasi ish yuzasidan kuchiriladi va xokazo.

**Talabalariga yangi materialni tuchintirish**

**Yogosh buyumlariga naqsh elementlarini chizishni orgatish.**

Naqsh kompozitsiyasi tozishdan oldin, yasalgan buyumning ulchamini anik ulchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muxim ahamiyat kasb etadi. Buyum ulchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan, turli burchakli va togri chizgichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (xirqol`) va boshqa bir qator asboblar kerak boladi.

Buyum ulchami aniq ulchab olingandan song, buyum uchun qanday naqsh kompozitsiyasi tozilsa buyum yanada korkamroq, gozal va jozibador chiqishligini koz oldiga keltirgan holda fikr yuritish lozim boladi. Bunda kompozitsiya tozuvchining dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muximi uning nozik tabiatliligi va didining yukori darajadaligiga boglik boladi. Demak, bir tuxtamga kelgach xitoy qogoziga naqsh kompozitsiyasi chiziladi.

Kompozitsiya tozishdan oldin bir narsaga aniklik kiritib olish maksadga muvofik boladi, ya`ni buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini e`tiborga olish joiz boladi. Yumshok materialdan olingan bolsa yirikroq, qattik materialdan olingan bolsa maydaroq, murakkabroq naqsh turidan foydalanish mumqin.

Mashg`ulotni boshlashdan avval dars uchun maxsus xona jihozlanishi zarur. Jihozlar mashg`ulotni metodik va didaktik jihatdan to`g`ri tashkil etishni ta`minlaydi va darsning samaradorligini oshiradi. Xona keng derazali bo`lib, unga quyosh nuri chap tomondan tushishi zarur. Yorug`lik chap

tarafdan tushib tursa bolalarning ko`rish qobiliyati susaymaydi. Ularning umurtqa pog`onasi qiyshaymasligi uchun stol-stullar bolalarning bo`yi va yoshiga munosib bo`lishi zarur. Xona doim quruq toza bo`lishi harorati (1h-g0 gradus) saqlanish kerak. O`qituvchi talabalar ishi ustidan to`la nazorat qilib turishi va har bir talaba bilan individual ishlay olishi uchun xonada to`la imkoniyat yaratilishi lozim. Xonada o`quv qurollari va materiallar ko`rgazma materiallar hamda talabalar ishlarini saqlash uchun shkaf yoki tokchalar bo`lishi zarur.

Talabalar mashg`ulot paytida gavdalarini to`g`ri tutib o`tirish hamda asbob-uskunalardan foydlanishda metodik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kerakligi tushuntiriladi va ko`rsatiladi.

Naqqoshlik san`ati asarlarini tahlil qilishda, xalq ustalarining asarlarini, ularning ijodiy faoliyatlaridagi ayrim davrlarni, ustalar ish uslubini qiyoslab, ularning bir-biridan farqini ko`rsatishda texnik vositalardan foydalanish katta samara beradi. Bunday texnik vositalarga epidaskop, filmoskop, kinoproektor va diaproektor, magnitofon, telvizor, kompyuter va boshqalar kiradi. Naqqoshlik xonasida bu vositalarning bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Texnik vositalardan  to`g`ri va unumli foydalanish o`quvchi-talabalarda talabalarda san`atga katta qiziqish uyg`otadi, ularda ijodkorlik va faollikni orttiradi. Ma`lumki, bular o`z navbatida mashg`ulotlarning mazmunli olib borilishiga yordam beradi. Shuningdek, ko`rsatmalilik yordamida o`tkazilgan mashg`ulotlar talabalarda fikrlash, narsa va hodisalarni bir-biriga taqqoslash, ular o`rtasidagi umumiylik yoki tafovutni aniqlash, o`tilgan mavzuni uzoq vaqt esda olib qolish ko`nikmalarini hosil qiladi.

Naqsh chizish uchun yaxshi sifatli rasm daftari, albom va butun oq "vatman", o`rtacha yumshoqlikdagi oddiy qora qalam, yumshoq oq yoki ko`k o`chirgich, uchburchakli yoki to`g`ri chizg`ichlar, serkul, 1 dan 10 gacha nomerli har-xil  mo`yqalam (kist)lar, kerakli bo`yoq turlari: quruq

bo`yoq, minerall bo`yoq, moy bo`yoqlar, guash, tempera bo`yoqlari, bo`yoq qorish uchun idishchalar yoki bankachalar, aralashtirish uchun tayoqchalar mavjud bo`lishi lozim.

Odatda, naqsh chizish uchun yumshoq va o`rtacha yumshoqlikdagi M, TM yoki N, NV kabi belgili qalam turlaridan foydalaniladi. Qattiq qalamlar qog`ozni tilib yuboradi va o`chirganda iz qoldiradi. Haddan tashqari yumshoq qalam bilan ham naqsh chizish yaramaydi, u bo`yalib ketadi.

Qalamni ishga tayyorlashga alohida ahamiyat berish kerak. Qalam uchini chiqarishda yog`ochqismi 1o-g0 mm, grafit qismi taxminan o-6 mm ochiladi.

Chiziladigan chiziqlarni barmoqlar to`sib qolmasligi uchun qalamning ochilgan uchidan sal balandroqdan uch barmoq bilan ushlanadi. Qattiq qisib ushlamaslik kerak, bularning hammasini muallim ko`rsatib tushuntiradi.

Chizilgan naqshning markazini aniq belgilash va ramkalar hosil qilishda to`g`ri va uchburchakli chizg`ichdan, har xil o`lchamdagi aylanalar chizishda va ularni teng bo`laklarga bo`lishda stirkuldan foydalaniladi.

Naqshga bo`yoq yaxshi mo`yqalamlar bilan surtiladi. Mo`yqalamlarning ishga yaroqlisi quyidagicha tanlab olinadi: uni toza suvga solib silkitiladi, agar mo`yqalamning uchi birikib ingichka holga kelsa, u ishga yaroqli, to`zib tursa, yaroqsizdir.

Mo`yqalamlar bo`rsiq, suvsar, olmaxon kabi hayvonlar yungidan tayyorlanadi. Biz bo`rsiq yungidan yasalgan 1 dan 10 gacha raqamli mo`yqalamlardan foydalanishni tafsiya etamiz.

1.**Siyoh mo`yqalam** - 1,g,q raqamli mo`yqalamlar bo`lib, axta yordamida naqsh tushirilgandan so`ng ularni yurgizib chiqish va gullar tortishda ishlatiladi. 4,o raqamli mo`yqalamlar esa band va marg`ulalarni ranglashda qo`llaniladi.

g.**Obi mo`yqalam** -6,7 raqamli mo`yqalamlar bo`lib, ular barg, gul va kichik yuzlarni ranglash hamda naqsh kompozistiyalarini chekkalarini (ramkalarni) yurgizib chiqish uchun ishlatiladi.

q.**Mola mo`yqalamlari** - h,9,10 raqamli mo`yqalamlar bo`lib, katta barg, band, gullar va naqshlar tagiga (katta zamin, kichik zaminga) rang berish uchun foydlaniladi.

Naqqoshlikda ishlatiladigan bo`yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo`yoq, guash, akvarel, emulsiya, bo`yoq, mineral bo`yoq, moybo`yoq, tempera bo`yoqlari. Naqqoshlik mashg`ulotlarida eng ko`p qo`llaniladigan bo`yoq guashdir. Guash kichik idishchalarda yoki alohida bankalarda bo`lib, u suvda yaxshi eriydi. Guashning yana bir qulayligi shundaki u bilan turli rangdagi qog`ozlar va yog`ochlarni ham bo`yash bir rangni ikkinchi rang bilan aralashtirib, uchinchi bir rang hosil qilish mumkin.

Har bir bo`yoq alohida stakan yoki kichik idishchada tayyorlanadi, alohida tayoqcha bilan aralashtiriladi.

Bo`yoq zarur suyuqlikda va tiniqlikda tayyorlanishi lozim. Bunda oq bo`yoqni boshqa bo`yoqlar bilan aralashtirib, kerakli rangni topa bilish muhim ahamiyatga ega. Yog`ochbuyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak: yog`och, belchalar, jilvir qog`oz, bo`r, pista ko`mir, sinka, doka, xitoy qog`ozi (kalka), nina, alif, elim, quruq kukunli bo`yoqlar, lak, 1-g0 nomerli mo`yqalamlar, idishchalar va boshqalar. Naqsh muallimi o`quvchilarga bu asboblarni ishga tayyorlash va ulardan foydalanish yo`llarini o`rgatadi.

Talabalar yog`ochbuyumlarni naqshlashlari uchun yog`ochturlari va ularning xususiyatlarini bilishlari kerak. Chunki, naqsh ishlashga har qanday yog`ochham yarayvermaydi. Naqsh ishlash uchun mos yog`ochtanlangandan keyin unga dastlabki ishlov beriladi va yuza tekislanadi (shpaklyovka

qilinadi) hamda tekislangan yuza bo`yoq bilan bo`yaladi (gruntovka qilinadi).

ozbek xalq ustalari qadimdan qollab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiatni va vokelikning shartli tasviri bolishiga qaramasdan oziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning aynan ozidan ramziy tarzda olingan. Odatda osimliklar bir tomonga qarab usadi, bu tabiat qonunidir. Masalan, majnuntol misolida koradigan bolsak, majnuntol xuddi pastga qarab tesqari usayotgandek tuyulsada, leqin xakiqatdan esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg bolib, bir tomonlama yunalishga qarab usadi. Tabiatning bu qonuni naqshda ham oz aksini topgan.



Naqqosh usta chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qogoz betini toldirish yoki oyma yuzini uyish uchun emas, balqi, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuktai-nazardan olib qaraganda oymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas`uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda toziladigan bolsa, u holda uyishda ham, pardoz berishda ham xar qancha yutuqka erishilsada ish kungildagidek gozal va jozibador chiqmaydi.

Daf`atan qaraganimizda oyma naqsh juda chiroyli, gozal va jozibador korinsada, leqin bir ozdan song naqsh kompozitsiyasi tozishda quyilgan xato va kamchiliklar, nuksonlar yakqol sezilib qoladi.

Moxiyatan olib qaraganimizda kompozitsiya nima ozio

***Kompozitsiya*** - lotincha sozdan olingan bolib, tuqish, bir-biriga ma`lum tartibda joylashtirish, solishtirish ma`nosini anglatadi. Kompozitsiya ishlashda ritm, simmetriya, assimmetriya, kompanovka, davriy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyliligi va pardozlarning bir-biriga uygunligi kabi komponentlarni oz ichiga oladi.

***Kompanovka, ya`ni joylashtirish*** - chizish kerak bolgan naqsh kompozitsiyasini yoki tasvirni qogoz, oyma uchun tayyorlangan taxtacha, buyum yoki biror yuzaga togri joylashtirish demakdir.

***Simmetriya*** - grekcha sozdan olingan bolib, ulchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.

***Assimmetriya*** - kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalar–ning, muvozanatning bozilishidir.

***Ritm*** - naqsh kompozitsiyasining ma`lum bir qismi ma`lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bolib, naqshdagi xaraqatning ozluksiz va gozal korinishini ta`minlaydi.

***Stilizaxiya*** - tabiatdagi osimlik, xayvon va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir.

Naqsh kompozitsiyasi chizishda quyidagilarga e`tibor qaratish va amal qilish kerak boladi

Birinchidan, tanob yoki novda tagida gul, guncha yoki bargni qoldirib tasvirlash mumqin emas;

İqqinchidan, tanob bilan novdani farklab tasvirlash;

Uchinchidan, taqsimda ortikcha naqsh elementlarini chizishga yol quymaslik;

Turtinchidan, tanobdan xech kachon gul, novda, guncha va boshqalarni usib chiqqan holda tasvirlamaslik;

Beshinchidan, naqsh elementlari nisbatini saklay bilish;

Oltinchidan, tozilgan naqsh kompozitsiyasining yogoch oymakorligiga moslab tuzilishi;

Ettinchidan, naqsh zichligiga e`tibor berish;

Saqqizinchidan, naqsh orasidagi zamin bushliklar nisbatini saklash va xokazolarni e`tibordan chetda qoldirmaslik joiz boladi.

Buyumdan olingan ulchamga moslab naqsh kompozitsiyalaridan bir nechtasi chizib mashk qilinadi. Chizilgan naqsh kompozitsiyalaridan eng munosibi tanlab olinib, chetiga zanjiralardan birini xoshiya sifatida qollash ham mumqin boladi. Agar zanjira qilinmasa chetidan albatta ramka qoldirish zarur. Ramkasiz naqshni bezalmagan uyga kiyos qilish mumqin.

Tozilgan naqsh kompozitsiyasini kal`ka (xitoy qogozi yoki shaffof qogoz)ga kuchirib axta (ulgi) tayyorlanadi.

Axta- tayyor rasmni shaffof qogozga chizib, chizik yollarini igna sanchib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlanadigan andozadir. İlk davrlarda ustalar oyma yuzasiga togridan-togri chizib, uyib ketganlar. Keyinchalik esa axta orkali tasvirni tushirish qulayligini sezishgan va undan foydalanib kelganlar.

Axta tayyorlash uchun buyumning oyma bajariladigan yuzasiga muljallab yupka shaffof qogoz olinadi. Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya uki buylab shaffof qogozni ikkiga, turtga va xokazolarga buklanadi. Buklangan shaffof qogozning bir qismiga naqsh kompozitsiyasi chiziladi. Naqsh chizilgan shaffof

qogozni yumshok yostik ustiga quyib naqsh chiziklari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshning yirik maydaligiga qarab igna tanlanadi va igna teshigi oraligi naqshning mayda yoki yirikligiga qarab teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa tayyor bolgandan song, shaffof qogoz yozib yuboriladi va bir butun kompozitsiyasini korish mumqin boladi. Tayyor bolgan axtani oyma yuzasiga quyib ustidan xoka urib yoki bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh nusxasi buyum yuzasiga kuchiriladi.

Kuchirilgan naqsh nusxasini uyishda yogoch oymakorligida turli asboblar ishlatilib, ularning xar biri oziga xos ishlarni bajaradi. Yogoch oymakorligida asboblar ikki turga bolinadi, ya`ni  naqshni uyish uchun «oyma kalamlar» va iqqinchisi «naqsh kalamlar» dir.

İskanalarni shakli va bajaradigan ishiga qarab ularning bir qancha turlari mavjud boladi. Masalan, togri iskana, novza iskana, nova iskana, zamin iskana, balik sirtli iskana, morpech iskana, chekma iskana, korakcha iskana, chekma kalam va boshqalar kiradi. Odatda yogoch oymakorligida ishlatiladigan iskanalarni maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki oymakor ustalarning ozlari tayyorlaganlar. Uyish bosqichlari esa biz avvalgi mashgulotlarimizda ta`kidlab amalda korganimizdek ketma-ketliqda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

oymakorlik ishlarini amalga oshirib bolgach, albatta, songgi pardozlash ishlari bajariladi. Xalq amaliy bezak san’ati turlari zargarlik, ganchkorlik, misgarlik, qololchilik kabi yogoch oymakorligida ham buyumga oxirgi ishlov berish, pardoz berish, jilolashdan iborat boladi. Masalan, yogoch oymakorligida umuman 6 ta pardoz turi mavjud bolib, ular kirma, chizma, pax, choka, lula va tabaka pardoz turlaridir. Shulardan 4 xili, ya`ni pax, choka, lula va tabaka pardozlari rel`efga pardoz berishda ishlatiladi. Ushbu pardoz turlari g ga bolinib oddiy (pax, choka va lula) va murakkab (tabaka) pardoz turlaridan iborat.

Odatda tozilgan naqsh kompozitsiyasining xarakteriga mos ravishda pardoz turi tanlanadi. Pardoz turini tanlashda yorug va soya tushishini ham hisobga olishni unutmaslik kerak. Masalan

Pax pardozi - yogoch oymakorligida oyma naqsh rel`efini bir tomonga kiyalab kesiladigan oddiy pardoz turidir. Bu pardozni yoyma pardoz deb ham yuritiladi.

Choka pardozi - naqsh bandining kiyaligini urtaga olib ozunasiga uyilgan pardoz turi. Bu pardozni yorma pardoz deb ham ataydilar.

Lula pardoz - oyma rel`efni yarim yumalok shaklda ishlov berilgan oddiy pardoz turi.

Tabaka pardozi - XIX asrda Buxoro ustalari tomonidan yaratilgan bolib, uyilayotgan barg, gul ikki yoki uch qatlam qilib uyiladigan pardoz turi. Tabaka arabcha qatlam, daraja degan ma`noni bildiradi.



Naqsh elementlari



Naqqsh kompozitsiyasini qalamda chizish ketma-ketligi



Naqsh buyashda aval muyqalam bilan maqsus mashqlar otkazish



Oddiy naqsh namunalarini buyash



Gullarga pardaz berish



Barg va gularga pardoz berish

## Xulosa

Amaliy-bezak san’atining asosiy maksadi kishilar yashaydigan muxitni va ozini urab olgan buyumlarni chiroyli qilishdan iborat. San’atning bu turida gozallik va qollanish (foydalilik) birligi degan ibora bor.

U buyumlarni faqat turmushda qollanilgandagina gozal bolishi mumqinligini bildiradi. Xatto, ayrim buyumlar bezaksiz bolganda ham gozal va badiiy bolishi mumqin. Bunda bu buyumning shakli va materiali katta ahamiyat kasb etadi. Uzingiz tasavvur etib koring, biron bir usta nixoyatda ajoyib bir shakldagi, tuzilishdagi, rangdagi, bezaqdagi buyumni yaratgan. U xar jixatdan kishilar e`tiboroni oziga tortdi. Leqin undan amalietda foydalanib bolmasa, u narsaning gozalligi ham bolmaydi.

Asirlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san’atining ayrim turlari, ularning oziga xos tomanlari, haqiyqiy ozbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaartgan ustalarimizning nomlarini tiklamogimiz dorkor. Shuning uchun xalqimizning asirlar buyi qilgan ijodiy mehnati natiyjasida yoratilgan tariyxiy yodgorliklar va boshqa Amaliy sanatini koz qorachigidek saqlash, qadirlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an`anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt chidam, qat`iyat, xalq amaliy san’atining qiziqarli oziga xos. turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir.'

ozbek xalq amaliy bezak san’ati ham san’at, ham hunar. o asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan koz qorachiqidek asrabavaylab kelingan xalq amaliy bezak san’ati durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlab kelinayotgan bu amaliy san’at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zero, oyib, chizib, tirnab, boyab ishlangan takrorlanmas naqshlar inson idroqining, odam histuyqolarining ifodasidir. Bamisoli yoqoch,, suyak, qora loy ganch va boshqalarga jo etilgan hayot qoshiqidir. hayot qoshiqi esa zamonlardanzamonlarga baralla yangrayveradi.

Umumiy ta’lim va hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yonalishlarida «Gozallik tuyqusini rivojlantirish, soqlom badiiy didfarosatni shakllantirish, san’at asarlarini, jonajon ona tabiat gozalligi va boylshini toqri tushunish va qadrlash mahoratini rivojlantirish zarur» deyiladi. Darhaqiqat, hozirgi vaxtda izohli luqatlarga bolgan ehtiej yanada oshib bormoqda.

Umumtalim maktablarida Amaliy sanat mashgulotlarini yaxshi olib borish uchun oqituvchi zamonaviy didaktikani yaxshi bilishi, uni amalda ijodiy qollay olishi, pedagogik faoliyatda didaktikaning quyidagi

Ta’lim va tarbiyaning birligi, ilmiy bolishi, korgazmalilik, onglilik, aktivlik va mustaqillik, ta’limning sistemali va izchil bolishi, talabalarga mos bolishi, unda bilim, konikma va malakalarni puxta, mustahkam ozlashtirishi nazariyaning amaliyot bilan boqliq bolishi, ta’lim berishda har qaysi oquvchilarga xos xususiyatlarni hisobga olib orgatish printsiplariga amal qilishi zarur.

Psihologiya shuni korsatadiki, talabalarning korish, eshitish, ta`m bilish va sezgi organlari qancha kop qatnashsa, shuncha bilim, konikma va malakalar yaxshi shakllanadi. Shunday ekan oqituvchi korgazmali qurollardan unumli foydalanishi kerak. U faqatgina talabalarning ishlarini korsatibgina qolmasdan, balqi ozi yoki talabalar bilan tayyorlangan plaqatlar, rasm va bezak materiallardan foydalanishi kerak.

ozbek xalq amaliy bezak san’ati darsi mashqolotlarini ijobiy tashqil etishda texnika vositalari etakchi rol` oynaydi. Kopgina darsilarda maxsus ustaxona va kabinetlar ajratilgan bolsada, leqin texnikaning maxsus vositalari, jumladan qinoapparat, epidiaskop, televizor, kampyuter, diaskoplar bilan ta`minlanmagan. Texnika vositalaridan foydalanish talabalarning bilimini boyitadi, san’atga bolgan qiziqishini oshiradi. Dars talabalarga bilim berishda san’at haqida suhbatlar otqazib turish katta ahamiyatga ega. Talabalarni zeriktirib quymaslik uchun korgazmadan togri foydalanish va suhbat otqazish tavsiya etiladi.

Darsi tarbiya ishlarining eng qiziqarli va mazmunli shakllaridan biri ekskorsiyadir. Ekskorsiya talabalarining darsi mashgulotlarida olgan bilimlarini mustaqkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi va tasurotlari ularning ijodiy

qobiliyatini oshiradi. Ekskorsiya darsi mashgulotlari dasturidagi biror temani kengroq, atroflicha organish uchun uyushtiriladi. oqutuvsi talabalarni xalq amaliy san’ati muzeyiga, tarix muzeyiga, tabiat muzeyiga, xalq ustalari ishlarining ob`ektiga, qoshni darsilarga va korgazmalarga, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarga ekskorsiyalarga olib borishi mumqin. Ekskorsiya vaqtida talabala korgan va tanishgan asarlardan namunalar kochirib olishlari mumqin, bu esa ularning bilimini boyitadi, san’atga bolgan qiziqishini oshiradi.

Ta’limning asosi – uqituvchining uquvchilarga etkazadigan kop axborotni esda olib qolish emas (garchi bu muxim vazifa bolsa-da), balki bu axborotni olish jarayonida uquvchilarning ozlari aktiv ishtiroq etishi, ularning mustaqil fikr yuritishini, mustaqil bilim olish qobiliyatini, oz-ozicha ma`lumotini oshirish kobiliyatini asta-seqin shakllantirish borishdan iborat bolmogi kerak.

Ong taraqqiyoti jarayonida bolaning borlikni aks ettirishning mexanizmlari tuzilishi, mazmuni ozgaradi. Bu fikrlash xususiyatlarining ozgarishida ham kozga tashlanadi. Misol sifatida bogcha bolalari uchun predmetlarning tashki xususiyatlarini va vaziyatlarini aks ettirish, keyinchalik esa predmetlarning funktsiyalarini ajratishini songra ularning tuzilishini ajratishlarini keltirish mumqin.

Ustoz degan nomni olish qiyindir. Bu sharafli nomlarni olish hammaga ham nasib etmagan. Bu ulug` nomni olish uchun ko`p yillar davomida murakkab sinovlardan o`tganlar.

Ular ayniksa, yoshlarimizning tarbiyasiga, hunar va ilm olishga doimiy chaqirib keldilar. Masalan: Abduraxmon Jomiy yoshlarga murojat qilib shunday degan edi:

«Oltin topmaguncha o`rgangil hunar,
Hunarning oldida hasdir oltin-zar».

Ota-bobolarimiz «Bir yigitga etmish ikki hunar oz» deb bejiz aytmaganlar. «Ey, farzand, agar oqil va dono bo`lay desang, hunarmand bo`lishni o`yla. Hunarmandlik sababidan izzat va

hurmatga erishasan, agar hunardan bebahra bo`lsang, quruq soyasiz daraxtga o`xshab qolasan. Ey, farzand, aqlli farosatli va ilmu-hunarli kishilar bilan do`st bo`l. Hunarsiz kishida hosiyat bo`lmaydi. Mehnatdan ilmu-hunar o`rganishdan uzoklashma».

Hunar o`rganib, ilmu-odob egasi bo`lgan odam olamda o`z o`rnini topadi. Mehnat qilish va uni elga manzur etishning ham o`ziga yarasha odobi bor. Siz quyidagi nasihatlarimizga amal qiling : Har bir ishni halol bajrib, oxiriga etkazing. «Mendan ketguncha....» tariqasida ish qilmang, ishni *qo`l* uchida qilishdan saqlaning, chunki bunday odamlarning xalq o`rtasida obro`-e`tibori bo`lmaydi.

Adabiyotlar royxati.


q.qadrlar tayarlash milliy d1st6ri //Barkamol avlod ozbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq, qoou.
g.Umumiy o`rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limi kontseptsiyasi.-Toshkent, 199o.
e. Tasviriy san’at. Umumiy orta ta’limning davlat ta’lim standarti va oquv dasturi. T. Sharq,qooo .
r. S.Bolatov «ozbek xalq amaliy san`ati» T- 199hy**.**
o.Bulatov S. Amaliy san’at qisqacha lug`ati.-Toshkent: hBM, 199g.
6.Boymetov B. , Tolipov N. Maktabda tasviriy san’at to`garagi. Toshkent, 199o.
u. Abdullaev. N. San`at tariyhı T. qoiy y.
i. Qosimov Naqqoshlik. T. oqituvchi, qoo0.
9. Oydinov N. Rassom-o`qituvchilar tayyorlash muammolari. -Toshkent; O`qituvchi, 1997.
10.Oripov B. Tasviriy san’at darslari samaradorligini oshirish omillari. –Toshkent: O`qituvchi, 197h.
11.Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi.–Toshkent: Fan, 1977.
qw. Xasanov R.Maktabda tasviriy san’atni oqitish metodikasi. Fan nashriyoti T. w00r.
qe. Xasanov R. Amaliy bezak sanati mashgulotlari metodikasi T. w00e
14.Hasanov R. Dekorativ Rasm İshlash T. qoo0
1o.Hasanov R. Tasviriy san’atni oqitish metodikasidan amaliy mashg`ulotlar. oquv qollanma. 1,g qismlar. – T:TDPU, g006.
16. Hasanov R. Tasviriy san’at va badiiy mehnat. Birinchi sinf uchun darslik.–Toshkent: O`qituvchi, 199h.
17.Hasanov R. Tasviriy san’atdan davlat ta’lim standartlarini amaliyotga joriy etish.-Toshkent, g000.

1h.Hasanov R. Amaliy bezak san’ati mashg`ulotlari metodikasi. O`quv qo`llanma.-Toshkent, g00q.
19. Mirzaxmedov M. Boshlangish badiiy naqsh ishlash metodikasi. T. qouy
w0. Egamov X. Buyoqlar Bilan ishlash. T. qoiq
wq. Ahmedov. V.A ozbekistan halıqlar tarıyhı manbalari. T.qooq y.

ww. Apuxtin O. K. Badiiy naqsh maktabi T. qoyo

we. Kozin.V. S. Voprosi izobrazitel`nogo tvorchestva. M. g.

wr. Oydinov N. ozbekiston tasviriy san’at tarixidan lavhalar. T-qooy.

wt. Majidov J. Rajapov O. Maktabta tasviriy sanat t1limi, samoradorligini oshirishning didaktik asoslari. T.qoor y.

wy. Mahmudov T. «Estetika i duxovnıe tsennosti» T.qoo4 g.

wu .Shoyokubov Sh. Musavvirn Toshkent -qoor.

gh. Abduraxmonov G`.M. Kompozitsiya asoslari. «Iqtisod-moliya»,Toshkent., g00h.
g9. SHarq miniatura maktablari.–Toshkent: /ofur /ulom, 19h9.
q0. Abdirasilov S.,Tolipov N. “Rangtasvir” Toshkent , g00o.
eq. www.nbgf.intal.uz
qg. www.Ziyo-Net.Uz.

## Mundarija

Kirish

ozbek Xalq amaliy bezak san’ati sirlari

Yogosh buyumlari uchun asbob uskunlar va ulardan foydalanish

ozbek xalq naqqsh atamalari va buyumlarni bezashda ishlatilishi.

Naqqoshliqda ishlatiladigan materiallar va ularning turlari.

Talabalariga Axta va shpaklevka tayyorlash texnologiyasi

Talabalariga yangi materialni tuchintirish

(yogosh buyumlariga naqsh elementlarini chizishni orgatish).

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar.